




№3
2024



ЎЗБЕКСТАН МАМЛЕКАТЛИК КОНСЕРВАТОРИЯСИ
НОКИС ФИЛИАЛИ

MUSIQ VA SAN'AT AJOBO KOTNOHASI | БЕЎТХИҚ ХУЗЪҚИ Ҳ ИҚОЎҚТБА | BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ

ILIMY - METODIKALÍQ JURNAL



**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ BILIMLENDIRIW,
ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRLOGI**

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT MINISTRLOGI

**ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

**MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ**

Ilimiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI

Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА

Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART

Scientific-methodical journal

№ 3/2024

QORAQALPOQ MUSIQA SAN’ATIDA SYUITA JANRINING RIVOJI

Abatbaeva R.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada Syuita atamasi va uning turlari, shular qatorida syuita janrining paydo bo‘lishi qoraqalpoq san’atida o‘zining turkumli asar qatorida Qoraqalpoq musiqa san’ati vakillarining syuita janrida yaratgan asarlar va ularning sharxlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu janrda ijod qilgan kompozitorlar va hozirgi kunda syuita janrining taraqqiyoti haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: musiqa, syuita, simfoniya, vokal, xor, akapella, drama, spektakl, ritm, metr, temp, major, minor, interval, seksta, septima.

Аннотация: В данной статье рассматривается термин сюита и ее виды, в том числе возникновение жанра сюиты в каракалпакском искусстве, в рамках его серии произведений, произведения, созданные представителями каракалпакского музыкального искусства в жанре сюиты, и их рецензии. представлено. Обсуждаются композиторы, работавшие в этом жанре, и развитие жанра сюиты в наши дни.

Ключевые слова: музыка, сюита, симфония, вокал, хор, акапелла, драматургия, исполнение, ритм, метр, темп, мажор, минор, интервал, секста, септима.

Annotation: This article examines the term suite and its types, including the emergence of the suite genre in Karakalpak art, within its series of works, works created by representatives of Karakalpak musical art in the suite genre, and their reviews. presented. Composers who worked in this genre and the development of the suite genre in our days are discussed.

Key words: music, suite, symphony, vocals, choir, acapella, dramaturgy, performance, rhythm, meter, tempo, major, minor, interval, sixth, seventh.

Ma'lumki, musiqa san'ati turli xil janrlarni o'zida mujassamlaydi. Ular orasida turkumlilikni o'zida namoyon etuvchi syuita janri o'ziga xos o'rin tutadi. Shular qatorida syuita janri o'zining turkumliligi va xarakteri jihatidan ajralib turadi. Syuita - fransuzcha "suited" - qator, tizma, ketma-ketlik ma'nosini anglatadi [1. 107-109]. Syuita asosan cholg'u musiqasi bo'lib, bir nechta mantiqiy va o'zaro qarama-qarshi qo'yilgan qismlardan tashkil topadi. Syuita atamasi boshlanishida uslubiylashtirilgan raqslar turkumiga taaluqli bo'lgan. Keyinchalik esa, opera, balet yoki boshqa yirik janrdagi lavhalarining yig'indisini, hattoki, dasturiy asosga ega bo'lgan bir nechta mustaqil pyesalarning yig'indisini anglatishni boshladi. Syuitaning birlamchi ko'rinishi renessans davrining (XIII-XVI asrlar) oxirida keng tarqalgan ikkita raqs - pavana va galyarddan tashkil topgan [2. 12]. Birinchi qismi – Pavana -vazmin, tantanali raqs bo'lib, uning nomi tovus (pavlin) so'zidan kelib chiqqan. Bu hol raqsga tushganlar ravon harakatlari, boshlarini mag'rurlik bilan u yoki bu tomonga burishlari va ta'zim qilishlari bilan tovusning harakatini eslatgan. Ularning kiyimlari ham chiroyli va rang-barang bo'lgan. Ikkinchi qism – Galyard - jonli, quvnoq xarakterdagi raqs bo'lib, undagi ayrim harakatlar kulguli nomlarga ega bo'lgan. Raqslar xarakter jihatdan har xil bo'lishiga qaramasdan ular bitta tonallikda yangragan.

Turkumlilik xususiyatlari Sharq xalqlarida asrlar davomida shakllanib kelgan, xalq ijodiy merosi bo'lmish maqom, dastgoh va mug'omlarda ham kuzatiladi. Professional kompozitorlik ijodiyotida esa XX asrning birinchi yarmida O'zbekistonda shakllangan va bugungi kunga qadar turli ko'rinishlarda rivojlanib kelmoqda.

O'zbekiston kompozitorlari ijodida mazkur janrga ilk bor e'tiborini qaratgan kompozitorlardan biri A.F.Kozlovskiy (1905-1977) bo'lgan. Uning simfonik orkestr uchun yaratgan «Karakalpaksкая syuita» asari qardosh xalqning musiqiy ohanglar asosida ilk janrlardan biridir.

Qoraqalpoq musiqa madaniyati XX asrga qadar og'zaki tarzda rivojlanib keldi. Bu davrdan boshlab qoraqalpoq professional musiqa madaniyati shakllandi.

1940-yildan boshlab simfonik orkestr uchun asarlar yaratila boshladi. Bulardan O.Halimovning “Qoraqalpaqstan”, “Qirq qiz” A.Sultonovning “Bozatau”, “Nigarim”, “Teke nali”, “Adinnan” temalariga syuitalar, J.Shamuratov “Qoraqalpaqstan”, A.Sultonov “Moya rodina”, A.Halimov “Mir” nomli xorlari, J.Shamuratov. A.Sultonov, Q.Turdikulov, K.Abdullaev, M.Jiemuratov qo'shiqlari va musiqiy dramali spektakllar, qo'shiqlar so'zlab beruvchi – jirau, qobiz asbobi bilan ijro etiladigan qahramonona eposlar, ijrochilardan sazende, qissaxanlardir.

Qoraqalpoq kuy qo'shiqlari, boshqa asarlari janr va tematikasi jihatidan har xil, asosan, diatonik lad (frigiylad)ga ega. Xarakterliligi shundaki, asar boshida yuqori ovozlarda boshlab keyin asta-sekinlik bilan pasayadi. Ritm esa rang-barangligi bilan boydir. Metr ikki hissalikdan boshlanib, murakkab turlari bilan ya'ni, 5/8, 7/8, 9/8 va boshqa metrlar bilan tugaydi.

Qoraqalpoq professional musiqa madaniyati sobiq ittifoq davrida tez va keng rivojlana boshladi. Bugungi kunga qadar va bugungi kunda qoraqalpoq kompozitorlari ijodiyotida milliy musiqa bo'lmish xalq kuy qo'shiqlaridan va folklor musiqalaridan foydalanib kelayotganining guvohimiz. 1936-1937 yillarda kompozitor Breynovskiylar uchun qoraqalpoq xalq baqshilarining ijro etishi bo'yicha yozilgan ayrim qo'shiqlarini yozdi [3. 138-144]. Bu ko'p ovozli qo'shiqni qoraqalpoq musiqasida foydalanishning birinchi tajribasi edi.

Qoraqalpoq madaniyatini shu bilan birga musiqa madaniyatining bundan ham yuksak rivojlanishi uchun ko'p ishlar olib borish zarur. Xalq musiqasining merosini yig'ish va diqqat bilan o'rganish ulkan ahamiyatga ega.

Shuni qayd qilish lozimki, qoraqalpoq milliy musiqasining o'ziga xos musiqiy kuylari, aynan syuita janri tarkibiga yaratilgan bir qator qoraqalpoq kompozitorlarini ham ijodga ilhomlantirgan. O'zbekiston xalq artisti, Berdaq nomidagi Davlat mukofoti sovrindori Olimjon Xalimov (1912-1984) tomonidan ham o'z vaqtida xalq cholg'ulari orkestri uchun “Qoraqalpoq syuita”si yaratilgan edi. Shuningdek, mazkur janrda muallifning 4 qismli simfonik syuita, “Orol lirikasi” nomli vokal-simfonik syuitalari mavjud. Qoraqalpoq kompozitorlarining

ushbu janrga e'tiborining anchagina kuchayganini ko'ramiz. O'zbekiston va Qoraqalpog'iston san'at arbobi, Berdaq nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, dirijyor va kompozitor Abdireyim Sultanov (1937-1994) ijodiy bisotida kompozitor B.Gienko bilan hammualliflikda xalq cholg'ulari orkestri uchun yozgan «Karakalpaks kaya syuita» asari bilan bir qatorda «Oramal oyini», «Xormangiz raqsi», uchta syuita, «Qoraqalpoq yoshlari», «Xorazmcha syuitasi», g'ijjak va orkestr uchun syuitalari o'rin olgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi madhiyasi muallifi, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalariga xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, davlat mukofotlari sovrindori, pedagog, jamoat arbobi Najimaddin Muxameddinov (1937) tomonidan ham o'z vaqtida skripka va fortepiano uchun «Qo'shiq va raqs», kamer simfonik orkestri uchun «Oramal», «Ang'alak» syuitalari, «Raqs syuitasi», «Ayjamal» balet syuitalarini yaratgan.

O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalari san'at arbobi, Berdaq nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, pedagog, dirijyor va kompozitor Qurbanbay Zaretidinov (1951) ham turli yillarda mazkur janrga bor e'tiborini qaratib kelgan. Uning qoraqalpoq xalq ertagi asosida bolalar uchun yaratgan «Ash qasqir» va «Nazlimxan sulıw» baletlari, xalk cholg'ulari orkestri uchun yaratgan «Birinchı quvonch» va «Vatan kuyları» syuitalari, xor va orkestr uchun «Tuwılğan jerim» syuitasi, «Ana Watanım» va «Shejire» yakkaxon, xor va orkestr uchun asarlari, «Dutar namalari» xalq cholg'ulari orkestri uchun yaratgan syuitalari ham alohida e'tiborga loyiq. 1990 yil «Aral muni» nomli yakka va akapella xor uchun syuita yaratdi. Asar O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri, O'zbekiston qahramoni, Qoraqalpoq madhiyasi muallifi Ibraim Yusupov «Aral muńı» asari asosida yozilgan.

Syuita janrining yengil raqsbop tabiati, icham shakldagi ko'rgazmali, musiqiy shakllar va obrazlarni yoritishga moyilligi syuita janrini qoraqalpoq kompozitorlar ijodida yetakchi o'ringa ko'tarilganligini ko'rish mumkin. Bu borada qoraqalpoq kompozitorlari Ulbibi Abdullaeva ijodida (1963) «Ómirbek»,

“Roksananing ko‘z yoshi” balet syuitali, torli kvartet uchun 3 qismli syuita, Marqabay Jiemuratovning (1943) simfonik orkestr uchun uch qismli Syuita, besh qismli Simfonik syuita, Sharapatdin Paxraddinov (1950) “Shilpiq 1rg‘aqlari» baletidagi raqs syuitalarini ham misol o‘rnida keltirish mumkin.

Qurbanbay Zaretdinovning “Aral mu‘ni” yakka va xor akapella syuitasi 1990 yil yozilgan bo‘lib, bu asar Orol dengizining to‘lib toshgan vaqtlarini va keyinchalik ayanchli holatda qurishini ta’riflaydi. Bu holatga insonlarning, ya’ni Orol atrofida yashovchi xalqning unga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatib bergan. Bunda so‘z matnining ham ahamiyati kattadir, sababi, so‘zlar insonlarning dilidagi so‘zlarini ifoda etgan.

Uch qismdan iborat bo‘lib asosiy musiqiy xarakteri rekeviemlarga xos bulgan mungli yig‘i deb aytsa bo‘ladi. Kompozitor orol dengizi bilan hayrlashuv manosida badiy jihatidan uta tasirchan va lo‘nda asarni yarata olgan. Asar davomida mavjud bulgan butun bir dengiz yer satxidan qurib yoq bo‘lib borishi, nafaqat bir millat balki, butun insoniyat uchun ulkan fojiya ekanini ushbu asarning birinchi taktidan oxirgi taktigacha uzinig chuqur ifodasini topgan. Andante tempida, 2\4, 3\4 razmerlarda yozilgan. Bu yerda bas, bariton, tenor, alt, soprano ovozlari uchun yozilgan. Shakli esa oddiy ikki qismli reprizali. Dastlab erkaklar ovozi, ya’ni bas, bariton, tenor ovozlari mungli xonish bilan boshlanib, uchinchi taktdan keyin alt kuyning qayg‘usini so‘zlar bilan davom ettiradi, asosan, erkaklar ovozi jo‘rnavor bo‘ladi.

Арал муны
И.Усупов сўзи I-бўлим Қ.Заретдинов наması

Andante (Солист ҳам акапелла хоры ушын сюита)

Ар-ка дан е-се-ди
Ен-ди кай-тып кел-мес

"ын - ын - ын - ын - ын (м...)

Asarning tuzilishi uch qismdan iborat bo‘lib, tonallik yoki lad jihatidan ularning birlashib turuvchi tabiiy minor frigiyladi bilan bo‘rttirilgan. Birinchi qism

“do frigi” ladida asosiy mavzu erkaklar ovozida yangraydi. Kvintaga sakrash va uni to‘ldirib borish keyinchalik septimaga sakrash va yana tayanchga qaytishi septimadan yuqoriga o‘tmasdan va qayta pastlab tushib borish xalq yig‘ilariga xos mungli ohangni yorqin ifodaladi. Keyinchalik asosiy mativning xorli ijrosi birinchi qismning ikkinchi yarmini tashkil etadi. Bunda xor bayonida oktavali kvinta kvarta ohanglanishi bilan ifoda etilgan. Bazida sekstaakkordli juftlanishlar vujudga kelsada, tayanch nuqtalarda oktavaning kvinta kvarta bulinishlaridan iborat ohangdoshliklarga urg‘u berilgan. Frigiyladining ustivorligini birinchi qismning oxirigacha qayd etiladi.

Ikkinchi qism “fa minor” frigiyl to‘rt kalit belgisiga ega bulsa xam frigiyl ladi o‘zini namoyon etgan. Xarakter bo‘yicha birinchi qismdan ajralib turadigan tomoni lad tayanchiga bo‘lgan o‘ziga xos bezaklar bilan boyitilgan, kirish qismida asosiy mavzu (a temro) lad tayanchiga pastdan va yuqoridan sekundali yurishlar bilan ifodalanadi. Andante sostenuto tempida, 7\8 o‘lchovida alt bilan tenor jo‘rligida xonishlar bilan obraz jihatidan suv tomchilab tugayotganday ohangda boshlanadi, keyin esa soprano mungli xonishda qo‘shiladi. Bu qismda qofiyadosh ohang qaytarilib keladi. Musiqa terminida motiv deb ham aytiladi.

Sekundali yurish kuproq chuqur falsafiy lirika dramatik xarakteriga ega bo‘lgan xalq qo‘shiqlariga xosdir. Bu qismdagi bunday yurishlar rivojlanishning asosiy urg‘usini tashkil etgan. Bu ikki qismni uzaro bog‘lovchi xususiyatlar frigiyladi, mungli oxanglarining umumlashuvidir, yani birinchi qismda yuqoriga pastga tomon gammasimon yurish bulsa, ikkinchi qismda lad tayanchiga yoki, vaqtinchalik tayanchga pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga sekundali yurishi, bu ikkinchi qism ritmik formula kuproq xalq yig‘ilariga xos bo‘lgan asosiy qolib desak buladi.

Uchinchi qism oddiy ikki qismli shaklda bo‘lib, fa minor tonalligida Ad libitum tempida yozilgan. Boshlanishi to‘rt taktli kirishdan boshlanadi. Og‘ir, vazmin xarakterda yarimtalik notalar bilan ifodalanadi. Qayg‘uli ohangni boyitgan holda bitta notani cho‘zib turadi.

Ikkinchi Adajio tempida, bunda sakkiztalik, oʻn oltitalik notalar bilan joʻshqin dengiz toshqinini aks ettiruvchi kvarta, kvintalar orqali koʻrsatiladi. Yakunlovchi qismda boshlangʻich material takrorlangan. Ad libitum tempida yozilgan. Boshlanishi toʻrt taktli kirishdan boshlanadi. Ogʻir, vazmin xarakterda yarimtalik notalar bilan ifodalanadi. Qaygʻuli ohangni boyitgan holda bitta notani choʻzib turadi.

Ikkinchi qismi Adajio tempida, bunda sakkiztalik, oʻn oltitalik notalar bilan joʻshqin dengiz toshqinini aks ettiruvchi kvarta, kvintalar orqali koʻrsatiladi. Yakunlovchi qismda boshlangʻich material takrorlangan.



Birinchi qism kuplet (bandli) shaklida, ikkinchi qism esa kuplet naqoratliga yaqin

Uchinchi qism notakroriy qaytarishsiz jumladan tuzilgan davriyani tashkil etadi.

Abdireyim Sultanov “Karakalpakskeya syuita” uch qismdan iborat boʻlib, anʼanaviy raqsli syuitalarga xos boʻlgan musiqa surʼatining kontrastlariga tayanadi. Asosiy xarakterdagi raqsni ifodalasa, ikkinchi qism yoki oʻrtalik lirik xarakterdagi qoʻshiqlarni aks ettiradi. Uchinchi qism repriza deyarli uzgarilmasdan qaytarilgan birinchi qismni qaytaradi. Xalq cholgʻulari orkestr cholgʻularining ifodalanishi topshirilgan. Raqs bop xarakterlar jonli kursatishda zarbli va plektorli cholgʻularda koʻrsatilgan. Umuman olganda cholgʻulashtirish aynan xalq cholgʻulariga xos ritmik va ohangli tovush sadolanishini yaqqol namoyon etgan. Toʻrt taktli kirishda Major ladiga xos tovushlarga tayanch berilgan bulsa, ham keyingi asosiy “mi” tovush boʻlib oʻz-oʻzidan maʼlumki ikki diezga ega boʻlgan. “mi doriy” ladini koʻrsatadi. Qisqagina “re” dan boshlangan gammali yurish biroq re majorga

umuman ishora qilinmaydi, ikki taktli ushbu bog'lanish lad tayanchidan biroz cheklanishni va unga bir oktavadan yuqorida qaytishini ta'minlaydi.

Birinchi qismning asosiy mavzusidagi ushbu yo'llanma bilan ikki marta oktavali yuqoriga qaytarishi bilan orkestr tuttisida berilgan.

Orkestrning turli guruhlarida sekvensiyalarni o'tishida mavzudan olingan qisqa mativ rivojlantiriladi. D -dan boshlab yarim tonli siljish taqqoslama holda bog'lanish bilan turt takt kirish.

Materiali berilgan. Bu bilan birinchi qismning tugallaninshi bajarilgan. Keyingi taktlarda Ye-dan boshlab lirik qismga kirish berilgan. F-dan Meno mosso temp ladning biroz uzgarishida liriik mavzu uninglad tayanchi "si" tovushi bo'lib, tabiy ioliy ladini ifodalaydi.

Shuni aytish kerakki, mavzuyilik jihatidan ikkinchi qismda ko'rsatilgan mavzu asoslarida bir biriga o'xshash lad tayanchiga yuqoriga tomon 3,4 pog'onaga ravon yurish ketadi. Lirik urtaliqda qoraqalpoq xalq qo'shiqlarinig vazmin kuychang turlariga xos bulgan sokinlik epik ruh seziladi. Ushbu mavzuning obrazlari haqida shuni aytish kerakki, kompozitor Abdireyim Sultanov o'zinig boy tajribasiga tayangan holda qoraqalpoq xalq qo'shiqlariga o'xshash (uyqash) original kuylarni yarata olgan, va ular deyarli asosiy mavzular xalq kuylaridan qilmaydi yani, ular kompozitor tovush qator lad ritmik hususiyatlarini mohirona qo'llash natijasida umumiy musiqiy ma'nosi bilan xalq kuylaridan ajralmaydigan kuyritmik tuzilmalarini yaratgan. Ushbu asarda lad xususiytlari uning asosiy ifodali tomonidir. Shuning uchun cholg'ulashtirish garmoniyalarida aynan o'zbek qoraqalpoq xalq musiqalarini orkestrga moslashtirish uchun qabul qilingan kvarta kvintali ohangdoshliklar (tovushsozliklar) qo'llanilgan. Yani, Yevropa musiqasiga xos bo'lgan uch tovushlik septimalardan emas, balki o'zlarining o'zgarilgan kvarta kvinta interval ohanglaridan foydalangan. Umuman olganda, bu syuita uzinig umum xarakteri bilan bayramona kayfiyatni vujudga keliruvchi tinglovchini ruhini ko'taruvchi xarakterga ega, va fikrimizcha bayram yoki tantanali marosim uchun yozilgan asar.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda yosh istedod egalari va yosh kompozitor va basakorlarimiz turli janrlarda o'zlarini sinab ko'rmoqda, mana shunda janrlar qatorida syuita janri alohida o'rin tutadi. Lekin achinarlisi hozirgi yaratilayotgan musiqiy asarlar oldingi kompozitorlarimiz ijodlaridan ancha farq qiladi, nima uchun degan savol tug'iladi mening fikrimcha hozirgi texnologiya zamoni bo'lgani uchunmi, yoki Yevropa an'analari kirib kelishimi? chunki oldinlari qalamda qog'ozga yozib musiqiy cholg'u oldida o'tirib ijod qilishgan, mana hozir esa (hamma degan fikirdan yiroqman), kompyuter programma deb o'ylaman, shunga qaramay qobilyatli yoshlarimiz ham bor, milliy koloritni yo'qotmagan holda qoraqalpoq musiqasining yo'qolib ketmasdan kelajak avlodga imkon qadar saqlangan holda yetkazishga harakat qilayotgan ijodkorlarimiz ham uchrab turadi. Shulardan yosh kompozitorlardan ham o'z nigohini mazkur janrga qaratib o'zlarining ijod namunalarini yaratib kelmoqdalar. Jumladan, Jamil Charshemov (1987) xalq cholg'ulari orkestri uchun syuita, Rano Abatbaeva (1993) «Qaraqalpaq ańızları» nomli 3 qismli syuitalar yaratgan.

Qoraqalpoq madaniyatini shu bilan birga musiqa madaniyatining bundan ham yuksak rivojlanishi uchun ko'p ishlar olib borish zarur deb o'ylayman. Xalq musiqasining merosini yig'ish va diqqat bilan o'rganish katta ahamiyatga kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abatbaeva R. Qoraqalpoq kompozitorlari ijodida syuita janri Musiqa san'atining dolzarb masalalari: Yondashuvlar, muammolar, istiqbollar «Musiqa» nashriyoti Toshkent 2018 B.107-109
2. Abatbaeva R. BMI. Toshkent-2018. B-12
3. Allambergenovna A. R. Historical Image of" Alpamys" In Karakalpak Music (Example in the Works of Nazhimaddin Muhammeddinov) //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2023. – T. 2. – №. 6. – C. 138-144.
4. Abatbaeva R. Kompozitor Najimaddin Muxammeddinovning ijodiga bir nazar Musika san'ati yoshlar nigohida Respublika 1 ilimiy-amaliy konferentsiyasi 1-sho'ba B.5-9 . 29-noyabr 2019-y

5. Абатбаева Р. А. РОЛЬ БАЛЕТА «АЙЖАМАЛ» В КАРАКАЛПАКСКОМ ИСКУССТВЕ //Донецкие чтения 2022: образование, наука, инновации, культура и вызовы современности. – 2022. – С. 5-7.
6. Абатбаева Р. Qoraqalpoq kompozitlorlik ijodiyotiga bir nazar “Yangi O‘zbekiston taroqqiyotida madaniyat va san’atning o‘rni” mavzusidagi respublika il,iy-amaliy konferenstiyasi 2023-yil 23-fevral. 342-347-bet
7. Абатбаева У. А. Арт-Педагогические И Арт-Терапевтические Технологии, Методы Пребывания В Образовании, Формы И Инструменты //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 40. – С. 496-498.
8. Abatbayeva, Ulbosin. "INITIAL LEVEL OF STUDENTS'MUSICAL CREATIVITY DEVELOPMENT." *Modern Science and Research* 2.10 (2023): 323-326.
9. Saidkhonov A. The Introduction and Popularization of the Era of Romanticism //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2023. – Т. 4. – №. 6. – С. 142-147.
10. Abdullo S. The Polyphonic Genre in the Work of Rodion Shchedrin //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 146-149.
11. Abdullo S. The Concerto-Virtuoso Etude in the Work of Franz Liszt //INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 11-16.
12. Abatbaeva R. BALLAD GENRE BY COMPOSER NAJIMADDIN MUHAMMEDDINOV //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 340-343.
13. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science manifestation of european and national traditions in the karakalpak ethno-opera «gulayum» SOI: 1.1/TAS DOI: 10.15863/TAS <http>
14. Алланбаев Р. О. РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ //Ta’lim fidozilari. – 2022. – Т. 7. – №. 8. – С. 94-100.
15. Камалова, Д. Э. Роль художественной детали в каракалпакских новеллах [The Role of Artistic Detail in Karakalpak Novels]. // Донецкие чтения 2021: образование, наука, инновации, культура и образы современности: Материалы VI Международной научной конференции. – Донецк: Изд-во ДонНУ. 2021. – с. 139-142.

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Allanbaev R.O. QOSÍQSHÍLIQTÍN BÚGINGI KÜNDEGI ÁHMIYETI.....	3
2	Kulchigayeva M. QORAQALPOQ XALQ QO‘SHIQLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI HAQIDA	10
3	Charshemov J., Muratbaeva R. JANA RUXTAGÍ XALÍQ QOSÍQLARÍ.....	16
4	Charshemov J. XVI-XVII ASRLARDA BALETNING YEVROPADA KLASSIK RAQS TURI SIFATIDA RIVOJLANISHI	22
5	Abatbaeva R. QORAQALPOQ MUSIQA SAN‘ATIDA SYUITA JANRINING RIVOJI.....	28
6	Rasbergenova X.S. MUSIQANING INSON SALOMATLIGIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI.....	38
7	Abdisultanov J. QARAQALPAQ MUZÍKASINDAGÍ JANRLÍQ ÓZGESHELIKLER (QARAQALPAQ MUZÍKALÍ DRAMALARDÍN PAYDA BOLÍWÍ HÁM RAWAJLANÍWÍ).....	43
8	Charshemov J., Orazalieva G. BAROKKO DÁWIRINÍN GARMONIYASÍ.....	49
9	Zuxurov M. VIOLONCHEL SAZ ASBABINÍN KELIP SHÍGIWI, ORKESTR HÁM KAMER ANSAMBLERINDE TUTQAN ORNI.....	54
10	Uzoqov D.S. UYG‘UR MUSIQALI TEATRINING MARKAZIY OSIYODA PAYDO BO‘LISHI.....	59

KÓRKEM ÓNER

11	Mamutov P.A. KOMPOZITOR HIKMAT RAJABOV ÓMIRI HÁM DÓRETIWSHILIGI HAQQÍNDA.....	65
12	Abdikarimova I. QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASINDAGÍ BIRINSHI FLEYTA ATQARÍWSHÍSÍ.....	71
13	Sobirjonov A. O‘ZBEK OPERA XONANDALIGIGA VA MILLIY QO‘SHIQCHILIGIGA ERGASH YO‘LDOSHEVNING QO‘SHGAN HISSASI.....	76
14	Saidxonov A.S. XX ASR YANGI VENA MAKTABI IJODKORLARI TARIXNING YANGICHA KO‘RINISHI.....	80
15	Dauletbaev T.Q. QORAQALPOQ BAXSHICHILIK SAN‘ATINING RIVOJIDA G‘AYRATDIN UTEMURATOVNING MEHNATLARI....	90
16	Matimuratov S. QARAQALPAQ KÓRKEM ÓNERINDE XOSH HAWAZ BÚLBÚL TAMARA DOSHUMOVANÍN TUTQAN ORNÍ...	95
17	Ońgarbaeva L. CHANG SAZ ÁSBABINÍN TARIYXÍ HÁM USTAZ ATQARÍWSHÍLARÍ.....	100
18	Sharipov A.Sh. XONANDALIKDA IJROCHILIK TAMOYIL VA ME‘ZONLARI.....	106

MUZÍKA PEDAGOGIKASÍ

19	Rajabov X.J. QASHQAR RUBABI BASLANG'ISH SABAQ BARISINDAGÍ TÁLIM MASHQALALARI TIYKARINDA.....	110
20	Abatbaeva U.A. ART-PEDAGOGIKALIQ HÁM ART-TERAPEVTIKALIQ TEXNOLOGIYALAR TIYKARINDA BASLANG'ISH KLASS OQIWSHILARIN ESTETIK TÁRBIYALAW MODEL.....	118
21	Jumaniyazov O'. O'QUVCHILARGA XALQ CHOLG'ULARINI O'RGATISHDA SHARQ ALLOMALARI MUSIQIY RISOLALARINING AHAMIYATI.....	125
22	Любимцева В.С. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ – ВАЖНОЕ УСЛОВИЕ ДЛЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МАСТЕРСТВА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ.....	131
23	Matjanova M. OQIWSHILARDÍ ESTETIK TÁRBIYALAWDA ÁMELIY QOLLANIW METODLARÍ, FORMA HÁM QURALLARI...	136
24	Jumabaev A. NOTA OQIW TÁJIRIYBESINDE ATQARIWSHILIQ KÓNLIKPELERIN ÓZLESTIRIW HÁM QÁLIPLESTIRIW.....	143
25	Раджабова Н. АКТИВИЗАЦИЯ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТОНАЦИОННЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ МЕЛОДИИ В МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ СОЛЬФЕДЖИО....	149
26	Mutalov D.A. YOSHLARNING MA'NAVIY SHAKLLANISHIDA MUSIQANING O'RNI.....	154

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

27	Palimbetov K.S. QARAQALPAQ XALÍQ DÁSTÚR FOLKLORÍNÍN ÚYRENILIW MÁSELESÍ.....	160
28	Bekbergenova Z. 1990-2000-JÍLLARDAĞÍ QARAQALPAQ AMATURGIYASÍ HAQQÍNDA	168
29	Marziyayev J.K. EKOLOGIK MADANIYAT VA UNI SHAKLLANTIRISH: EKOLOGIK MUAMMONI OLDINI OLISHNING BIR USULI SIFATIDA.....	176
30	Sadenova G.P. KÓRKEM SHÍĞARMALARDA EPITETTÍN QOLLANÍLÍW ÓZGESHELIKLERI HÁM USÍLLARÍ.....	181